BADIIY MATNLARDA AFFIKSATSIYA USULI BILAN YASALGAN SIFAT NEOLOGIZMLARNING O‘RNI.

Fayzullayeva Orzigul Umid qizi
orzigulfayzullayeva0gmail.com

Annotatsiya: Maqolada badiiy matnlarda affiksatsiya usuli orqali yasalgan sifat neologizmlarining o‘rni, ularning leksik-semantik xususiyatlari hamda badiiy-estetik funksiyalari tahlil qilinadi. Neologik sifatlarning matn mazmunini boyitish, obrazlarni jonlantirish, muallif uslubini individuallashtirishdagi ahamiyati misollar orqali izohlanadi. Shuningdek, zamonaviy adabiyotda faol qo‘llanayotgan –dor, –vori, –sifat, –iy, –ona kabi affikslarning semantik imkoniyatlari ochib beriladi. Tadqiqot affiksatsiya orqali yaratilgan yangi sifatlarning til dinamikasidagi o‘rni va ularning badiiy matnlardagi stilistik yukini yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: uslub, yangi yasalma, affiksatsiya, so‘z yasovchi, leksik-semantik imkoniyat,

Tilning boyib borishi, undagi yangi ma’no va mazmunlarning shakllanishi, avvalo, uning ichki imkoniyatlariga bog‘liq. O‘zbek tili uchun affiksatsiya jarayoni ana shunday ichki imkoniyatlarning eng sermahsullaridan biridir. Ayniqsa, adabiyotda, badiiy matnlarda yangi sifatlar yaratish orqali mualliflar o‘z tasvir vositalarini kengaytiradi, obrazlarni yanada jonli, chuqur va o‘ziga xos talqinda ifodalaydi. Bunday neologizmlar badiiy matnning mazmuniy qatlamini kengaytiribgina qolmay, balki muallifning individualligini ham yorqin namoyon etadi. Neologik sifatlar matnda semantik o‘ziga xoslik yaratadi, o‘quvchi tasavvuriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotda affiksatsiya usuli orqali yaratilgan sifatlardan foydalanish an’anaviy jarayon bo‘lib, klassik adabiyotdan to zamonaviy nasr va she’riyatgacha davom etib keladi. Bunday sifatlar orasida –dor, –vor, –iy, –li, –siz, –ona, bad-, ser-

kabi affikslar eng faol qo‘llanuvchilardir. Neologizmlarning ahamiyati shundaki, ular tilning moddiy tarkibini boyitadi, yangi ma’no shakllanishiga sabab bo‘ladi, mazmunni ta’sirchan qiladi. Quyida affiksatsiya orqali yasalgan sifat neologizmlarining badiiy matnlardagi tutgan o‘rni, shakllanish imkoniyatlari va adabiy-estetik funksiyalari batafsil to‘xtalib o‘tamiz. Affiksatsiya – bu o‘zbek tilida yangi so‘zlar yasashning eng keng tarqalgan va samarali usullaridan biridir. Affikslarning faol ishlatilishi, ayniqsa, sifat yasashda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ba’zan so‘zning mavjud shakli ko‘pincha yangi obraz yaratishga yetmaydi, shu bois shoir va yozuvchilar tilning o‘z ichki mexanizmlari orqali yangi sifatlar yasaydi. Masalan, “kuzli”, “bebahor”, “beqo‘shiq”, “beosmon”, “seryalinch” kabi so‘zlar badiiy tasvirni kuchaytiradi, mantiqiy ta’sirni oshiradi. Badiiy matnlarda neologik sifatlar muallifning didi, tasvirga bo‘lgan munosabati, obrazga bergan bahosini ifodalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ular orqali asar qahramonlarining holati, muhitning koloritini, muallif ruhiy kechinmalarini tushunish osonlashadi. Yangi sifat yasash jarayoni tilning rivojiga ham xizmat qiladi. Bu jarayon adabiy tilning moslashuvchanligini, yechim topishga qodirligining kuchliligini ko‘rsatadi.

Qolib ketgan bo‘lsam kerak
***Bolaliksiz** bolaligimda,*
onam tortgan sitamlar ostida.

Odamning hali voyaga yetmagan, o‘yinqaroq, har nega ishonadigan, ko‘ngil qalbi pok bo‘lgan davri bolalik davridir. Yuqoridagi misralar yozuvchi avtobiografiyasi bilan ham bog‘liq holda yozilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yoshligi qiyinchiliklar bilan o‘tgan shoira hayoti satrlarda aks etgan. Oilaviy sharoiti sababli turfa qiyinchiliklar boshidan o‘tgan. Misralarda ot asosga sifat yasovchi –siz qo‘shimchasi qo‘shilishi orqali yangi yasalma hosil bo‘lgan.

Tong yalinar quyoshga tinmay,
Quyosh yoqib yuborar o‘zin.

Zamin titrar kutilmaganda,
Tunning mitti xatosi uchun.
*Bu **seryalinch** shovqinlarga, o*
Jon achishar, kelmay deb malol
Shahar ko‘nar bariga, ammo
Chidayolmas aldangan ayol.

Ushbu yasalmani tahlil etadigan bo‘lsak, *ser+yalin-ch* sifatida asos qo‘shimchaga ajraladi. Azim Hojiyev o‘zining “O‘zbek tili so‘z yasalishi” kitobida keltirishicha, ser- affiksi bilan yasaladigan sifatlar tilimizda 100 dan oshiqni tashkil etadi. *Seryalinch* okkozional neologizmining yasalishi uchun asos sifatida *yalinch* so‘zini olamiz. Biroq yalinch so‘zining o‘zi ham okkozional yasalma sanaladi, ya’ni *yalinmoq* so‘zidan hosil bo‘lgan deyishimiz mumkin. Tilimizda bunday qolipda yasalgan ko‘plab yasalmalar bor. Masalan: yupan+ch. suyan+ch, tayan+ch, ishon+ch kabi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, *ijod jarayonida har bir so‘z badiiy-estetik ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Badiiy matnda ijodkor tomonidan hosil qilingan yangi yasalmaning funksional-estetik jihatdan belgilanishi kognitiv va so‘z yasalishini inobatga olgan holda aniqlanadi. Badiiy ijodda yangi so‘z yozishga ehtiyoji muallifdan ifodaning tilimizdagi noodatiy shakllarni topishni talab etadi. Bu esa o‘z navbatida ijodkor tomonidan hech kim kutmagan, estetik ta’sirchanligi kuchli bo‘lgan so‘z yaratilishiga zamin bo‘ladi.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. –Toshket :O‘qituvchi, 1992. –B.110.
2.***Farida Afruz. Shamolda sham ko‘tarib. –Toshkent. 2010. –B. 26.***
3.Hojiyev A.O‘zbek tili so‘z yasalishi. –Toshkent. 1989. –B.80
4.Umurqulov B.Poetik nutq leksikasi. –Toshkent:Fan, 1990. –B. 11.